

AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI

Mamadjanov Jahongir G'ayratovich

DELOITTE MCHJ direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlikning aholi turmush sifatiga ta'siri tahlil qilinib, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o'rganiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, oilaviy tadbirkorlik, kichik biznes, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy resurs, moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik, mehnat resurslari, mahalliy bozor, imtiyozli kredit, soliq, tadbirkorlik sub'ekti, aholi bandligi, iqtisodiy faollik, eksport, institutsional cheklov, menejment, marketing.

Hozirgi globallashuv sharoitida aholi turmush sifatini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, oilaviy tadbirkorlik kichik biznesning muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, balki bandlik darajasini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy tadbirkorlikning afzalliklari orasida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mahalliy bozorlarni rivojlantirish va o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytirish kabi jihatlar mavjud. Ayniqsa, qishloq hududlarida oilaviy biznes aholi daromadlarini oshirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, imtiyozli kreditlar ajratish, soliq yengilliklari berish va tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Oilaviy tadbirkorlik bo'yicha bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli iqtisodiy nazariyalar va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Shumpeter (1934) tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'rib chiqib, oilaviy biznesning innovatsiyalarni joriy etishdagi roli to'g'risida o'z fikrlarini bildirgan. Boshqa tomondan, Bekker (1981) o'zining "Ijtimoiy kapital va oilaviy iqtisodiyot" konsepsiyasida oilaviy biznesning resurslardan samarali foydalanish va bandlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yoritgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida N.Xudoyberganov (2019) oilaviy tadbirkorlikni kichik va o'rta biznesning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilgan. Shuningdek, A.Qo'chqarov (2021) O'zbekistonda oilaviy biznesning huquqiy asoslari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganib, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar bergan.

Oilaviy tadbirkorlikning aholi turmush sifatiga ta'siri ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda o'rganilgan. Xususan, Astrachan va Shanker (2003) oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni haqida oilaviy biznesning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oilaviy korxonalar uzoq muddatli istiqbolga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy inqiroz sharoitida ham moslashuvchanlik va barqarorlikni saqlab qolish qobiliyatiga ega. Mahalliy olimlarimizdan biri R.Karimov (2020) qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikning aholining daromadlari va ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga ta'sirini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik orqali aholi bandligining oshishi kambag'allik darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar oilaviy tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llab-quvvatlamoqda. Xitoy, Germaniya va AQSh tajribalari oilaviy biznesning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Masalan, Miller va Le Breton-Miller (2005) oilaviy biznesning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun muhim omillarni tahlil qilib, ularning boshqaruv uslublari, innovatsion yondashuvlari va merosxo'rlik tizimlariga alohida e'tibor qaratgan. Germaniyada oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari, jumladan, soliq yengilliklari va ta'lim dasturlari orqali yangi tadbirkorlarni tayyorlash amaliyoti keng qo'llaniladi. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani inobatga olgan holda, biznes muhitini yaxshilash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik aholi turmush sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy manbalar asosida oilaviy biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng yoritilgan. Xorijiy va mahalliy tajribalar oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda.

Oilaviy tadbirkorlik ko'plab mamlakatlarda bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy biznes – norasmiy bandlikning oldini olishda muhim vosita bo'lib, ayniqsa, qishloq hududlarida aholining barqaror ish bilan ta'minlanishiga yordam beradi, ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi, shuningdek, ishsizlik darajasining pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2022-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohasida ishlovchilarning umumiy bandlikdagi ulushi 78 foizni tashkil etgan. Albatta, oilaviy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi natijasida aholi daromadlari oshib, kambag'allik darajasi pasayishi kuzatiladi. Masalan, oilaviy biznes bilan shug'ullanuvchi oila a'zolarining o'rtacha daromadi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmaydigan oilalarga nisbatan 25-30% yuqori. Oilaviy tadbirkorlik nafaqat asosiy daromad manbai,

balki qo'shimcha daromad olish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalar farovonlik darajasini oshirish uchun ko'proq investitsiyalar kiritadi va o'z bizneslarini kengaytirishga intiladi.

Oilaviy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham ta'sir qiladi. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va o'zaro ishonch darajasi oshadi. Oilaviy korxonalar mahalliy jamoalarda ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash va xayriya tadbirlarini tashkil etishda faollik ko'rsatadi, mahalliy hamjamiyatlarning iqtisodiy faolligi ortishi natijasida hududiy iqtisodiy farovonlik ta'minlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Bular asosan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi – ko'pgina oilaviy biznes egalari bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas, huquqiy va institutsional muammolar – oilaviy tadbirkorlikni tartibga soluvchi qonunchilik hali ham takomillashtirilishi zarur, shuningdek, bozor infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi – ayrim hududlarda mahsulotni bozorga chiqarish va sotish imkoniyatlari cheklangan hamda tadbirkorlik bo'yicha bilim va tajribaning yetishmovchiligi – ko'plab oilaviy tadbirkorlar biznes yuritish bo'yicha yetarli tajribaga ega emaslar.

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasi o'rganilganda, ushbu davlatlarning quyidagi omillar orqali sohadagi quyidagi muvaffaqiyatlarini ko'rish mumkin. Hususan, bu borada moliyaviy ko'mak va imtiyozli kreditlar ajratish tizimi, biznes ta'lim dasturlari orqali oilaviy tadbirkorlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, soliq yengilliklari va qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, hamda mahsulotlarni eksport qilish va global bozorga chiqish uchun qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, shular qatoridan o'rin olgan.

Oilaviy tadbirkorlik aholi turmush sifatini oshirishda muhim o'rin tutib, iqtisodiy barqarorlik, bandlik va daromadlarning o'sishiga xizmat qiladi. Amalda mavjud bo'lgan moliyaviy va institutsional cheklovlarni bartaraf etish uchun tizimli islohotlar, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribadan foydalangan holda uni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va uning aholi turmush sifati oshishiga ta'sirini kuchaytirish maqsadida bir qator takliflar ilgari suriladi. Oilaviy tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmlarini kengaytirish, mahalliy va xalqaro grantlar orqali oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, mikromoliyalash tizimini takomillashtirish orqali kichik biznes egalari uchun mablag' ajratish shartlarini yengillashtirish, oilaviy tadbirkorlar uchun biznes yuritish, menejment, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha maxsus o'quv kurslari tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va mahalliy

tadbirkorlikka moslashtirish, oilaviy biznesni rag‘batlantirishga qaratilgan qonun va me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari uchun soliq yengilliklarini oshirish, oilaviy biznesning huquqiy maqomini aniq belgilash va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish shular qatoridan o‘rin olgan.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlik mahsulotlarini eksport qilishga ko‘mak beruvchi dasturlarni ishlab chiqish, raqamli marketing va elektron tijorat vositalaridan foydalanish orqali oilaviy biznesning bozor ulushini oshirish, oilaviy tadbirkorlarning xalqaro ko‘rgazma va forumlarda ishtirokini rag‘batlantirish, oilaviy tadbirkorlikda zamonaviy texnologiyalar va raqamli transformatsiyadan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish, startup va innovatsion biznes loyihalariga investitsiyalar jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi takliflar ham mavjud.

Oilaviy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy taraqqiyot omili, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham xizmat qiluvchi muhim soha hisoblanadi. Uning rivojlanishi ishsizlikni kamaytirish, aholi daromadlarini oshirish va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu boisdan, oilaviy tadbirkorlikni tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Taklif etilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, oilaviy tadbirkorlik sohasi yanada rivojlanib, aholining turmush sifati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Mamlakatimizning turli hududlarida oilaviy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari sonining o‘ssishi, ayniqsa, aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. 2021-2023-yillarda oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari soni 75.4 mingdan 89.7 mingga o‘sdı, va bu o‘z navbatida, 250 mingdan ortiq odamni ish bilan ta‘minlash imkonini yaratdi.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning UAIMdagi ulushi ham ortdi, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 11.5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 13.0 foizga yetdi. Bu, oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy o‘ssishdagi rolini va uning jamiyat uchun ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham muntazam ravishda o‘sig, 2023-yilda 10,2 milliard so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkichlar oilaviy tadbirkorlikning jamiyat uchun yaratgan iqtisodiy imkoniyatlaridan dalolat beradi.

1-jadval.

Oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatining ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023
Oilaviy tadbirkorlik sub’yektlari soni (ming)	75.4	82.1	89.7
Oilaviy tadbirkorlik sohasida band bo‘lganlar soni (ming)	250	270	295
Oilaviy tadbirkorlikning UAIMdagi ulushi (%)	11.5	12.3	13.0

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	8,400	9,100	10,200
---	-------	-------	--------

Manba: Muallif ishlanmasi.

O‘zbekistonning ayrim hududlarida oilaviy tadbirkorlik sub’yektlarining rivojlanish darajasi ham farq qilmoqda. Toshkent shahri, Samarqand, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlarida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish indeksi yuqori bo‘lib, bu hududlar iqtisodiy faollikni oshirishda hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda faol ishtirok etmoqda.

2-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va imtiyozlar

Hududlar	Oilaviy tadbirkorlar soni	Rivojlanish indeksi (0-100)
Toshkent shahri	12,500	85
Samarqand viloyati	10,300	78
Farg‘ona viloyati	9,800	76
Qashqadaryo viloyati	8,600	72
Andijon viloyati	8,200	70
Boshqa hududlar	32,400	-

Manba: Muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston hukumati oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator imtiyozlar va dasturlarni ishlab chiqqan. “Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturi orqali oilaviy biznesga imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va yangi ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha subsidiya taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, UNDP va Jahon banki tomonidan kichik biznes uchun ajratiladigan grantlar ham oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

3-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlashining ta’siri

Dastur/tadbirkorlik yordamlari	Ta’minlanadigan xizmatlar
“Har bir oila – tadbirkor” davlat dasturi	Imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, subsidiya
Mahalliy va xalqaro grant dasturlari	Grantlar, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash
Raqamli va innovatsion biznes loyihalari	E-commerce platformalari, biznes akseleratori

Manba: Muallif ishlanmasi.

2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy biznes yuritish daromadlarni oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘rovda qatnashgan tadbirkorlarning

83% o'z biznesi orqali daromadning oshganligini bildirgan. Shuningdek, tadbirkorlar davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlashni (soliq imtiyozlari va subsidiya) ko'plab bizneslar uchun foydali deb baholamoqda.

4-jadval.

Savollar	Ha (%)	Yo'q (%)
Oilaviy biznes uuritishning daromadlarni oshirishga ta'sirini his qildingizmi?	83	17
Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yetarliimi?	56	44
Soliq yengilliklari va imtiyozlar tadbirkorlik rivojlanishiga yordam beradimi?	68	32
Oilaviy biznesni kelajakda kengaytirish niyatingiz bormi?	74	26

Manba: Muallif ishlanmasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-327-son, T.: O'zbekiston, 2012-yil 26-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillash-tirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, PQ-149, 02.04.2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar ajratishni takomillashtirish hamda aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 161, 19.04.2023.
4. F.Tolipov "Family Business in Uzbekistan and Its Role in Public Life of the People (Historical and Social Analysis)". 2024. *Oriental Journal of Social Sciences*, 4 (01). <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-04-01-03>.
5. F.Tolipov (2024). "Family Business in Uzbekistan and Its Role in Public Life of the People (Historical and Social Analysis)". *Oriental Journal of Social Sciences*, 4(01). <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-04-01-03>.
6. G.T.Samiyeva (2021). "Reform in the Field of Familu Entrepreneurs in Reducing Povertu in Uzbekistan". *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 7, 96–100. <https://doi.org/10.51699/ajdes.v7i.124>.
7. "How many family businesses operate in Uzbekistan?". (2024). *UzDaily.uz*. <https://www.uzdaily.uz/en/how-many-family-businesses-operate-in-uzbekistan-05-01-2024/>.
8. "Family Entrepreneurship Development Programs". *Mikrokreditbank*. <https://mkbank.uz/en/familu-programs/>.
9. "Loans are provided at a rate of 14 percent for the development of familu entrepreneurship". (2024). *UzDailu.uz*. <https://www.uzdaily.uz/en/loans-are-provided -at-a-rate-of-14-percent-for-the-development-of-family-entrepreneurship/>.